

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY HARAKATLAR TEATRINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA AHAMIYATI

Nazirova Guzal Malikovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Shomurotova Zilolaxon

Qo`qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy harakatlar teatri, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, zaruriyati haqida ilmiy va nazariy ma`lumotlar keltirilgan bo`lib, maktabgacha ta`lim tizimiga jismoniy harakatlar teatrini vosita sifatida kiritish zarurati izohlangan.

Kalit so`zlar: maktabgacha yosh, bola, jismoniy rivojlanish, ta`lim tizimi, jismoniy harakatlar teatri, vosita, vazifa, zarurat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog`lomlashtirish vazifalari – bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo`lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog`ligini mustahkamlash, organizmini chiniqtrishni maqsad qiladi.

Xususan, maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarmog`ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta`minlash, bolalarni mifik tab ta`limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta`limtarbiya jarayoniga zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida “O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarorda maktabgacha ta`lim tizimidagi mavjud tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta`lim sohasida davlat siyosatini to`liq amalga oshirishga to`sinqinlik qilayotgan sabablar ko`rsatilgan.

Tadqiqotchilar Sh. X.Xankeldiev, D.Isaqova fikricha maktabgacha ta`lim muassalarida mashg`ulotlar jarayonida noan'anaviy vositalarni qo`llash sohaning ta`lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko`tarishda hamda bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishida muhim o`rinni egallashini alohida ta`kidlab o`tadi. Jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida noan'anaviy ta`lim metodlarini qo`llab qo`shimcha variativ dasturlarni ta`lim tizimi amaliyotiga joriy qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Tarixan jismoniy harakatlar teatriga Germaniyaning Kyoln universiteti tomonidan mashg`ulot konsepsiysi sifatida asos solingan. Bu konsepsiya Anne va Wolfgang Tiyedt tomonidan yaratilgan bo`lib, uni “musiqa va raqs bir-biri bilan chambarchas bog`langan, o`zaro bir-biriga ta`sir qiluvchi” harakatlar majmuasi sifatida tasvsiflaydi [26; 26-p.]. Jismoniy harakatlar teatri Xitoy, Janubiy Amerika davlatlari, AQSh va Yevropa davlatlarida keng qo`llaniladi.

Jismoniy harakatlar teatri mazmunan quyidagicha tavsif etiladi: o`yin, musiqa, raqs, til, ritm va harakatlarning integratsiyasi asosida mashg`ulot tashkil etiladi. Jismoniy harakatlar teatrining jozibadorligi, maqsadga yo`naltirilganligi hamda samaradorligi aynan integrativ va kreativ yondashuv uyg`unligi asosida ta`minlanadi. Jismoniy harakatlar teatri antrapologik jihatdan xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, shuningdek etnografiyasi hamda falsafasi bilan chambarchas bog`liqlikka ega.

Jismoniy harakatlar teatri yosh davri xususiyatlariiga mos ravishda tashkil etiladi. Ma'lumki, maktabgacha yosh davri 3 yoshdan to 7 yoshgacha davom etadi. Ushbu davrda bilish jarayonlari (xotira, tafakkur, ijodiy fikrlashga harakat) jadal rivojlanadi, skelet suyaklarining qotishi va suyak-mushak tizimining mustahkamlanishi jadal sodir bo'ladi, bolaning harakatlari ancha turli-tuman va koordinasiyalangan holda sodir bo'ladi, yangi tug'ilgan davrdagiga nisbatan mushaklarning kuchi 4-5 marotaba oshadi, yurak faoliyati sezilarli darajada yaxshilanadi, miyasining og'irligi kattalashadi va 7 yashar bolada 1250 grammni tashkil qiladi, shartli reflektorli aloqalar ko'p sonli bo'ladi, shartli tormozlanish rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bo'yiga bir tekisda o'smaydi. Avvaliga yiliga 4-6 sm, 6-7 yoshda 7-10 sm gacha o'sadi va buni bo'yining birinchi fiziologik cho'zilish davri deb ataladi. Bolalarning vazni ham bir xilda ko'paymaydi. 4 yoshli bolaning og'irligi qariyb 1,6 kg ga ko'payadi, 5 yoshda 2 kg ga yaqin, 6 yoshga borib 2,5 kg, ya'ni o'rtacha hisobda yiliga 2 kg ga ko'payadi. 6-7 yoshga borib, bolaning og'irligi 1 yasharligidagiga nisbatan 2 baravar oshishi kerak. Bu yoshda teri tobora qalinlashadi, elastiklashadi, unda qontomirlar soni kamayadi, u mexanik ta'sirlarga anchagina chidamli bo'lib qoladi. 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalar terisining sirti 1 kg vaznga nisbatan hisoblanganda kattalarnikiga qaraganda ko'proq bo'ladi, shu sababli ular salga issiqlab ketishi yoki soyuq qotishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tizimiga jismoniy harakatlar teatrini vosita sifatida kiritish zaruratini quyidagicha izohlash mumkin. Jismoniy harakatlar teatri O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturlarida keltirilgan quyidagi rivojlanish sohalarini qamrab oladi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari tomonidan tashkil etilayotgan jismoniy tarbiya mashqlarida aksariyat holatlarda ayni bir jismoniy mashqni o'rghanish, takrorlashga qaratilgan. Bolalar tomonidan bajariladigan mashqlar ularning faqat jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bilan chegaralanadi. Rivojlanishning boshqa sohalarini qamrab olmasligi mavjud holatni asosiy muammosi sifatida ta'kidlash lozim bo'ladi. Mazkur muammoga yechim sifatida jismoniy harakatlar teatri didaktik jihatdan mukammal yechim bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi to'g'risida"gi PQ-4312-sen Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-sen; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-sen.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF 5924-soni "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish choratadbirlari to'g'risida gi Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2020-y., 07/20/5924/0081-sen, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-sen; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-sen.
3. Torrence E.P. Developing creative thinking through school experience. // N.Y., 1962. – P. 215.
4. Usmonxo'jayev T. 1001 o'yin. – T.: Medisina, 1999. – B. 350.
5. Чумакова С.В., Штерн Л.В. Методическая разработка: театр физического воспитания в образовательном процессе ДОУ" // Усть-Лабинск, 2018. – С. 65.

6. <https://znanio.ru/media/jismoniy-harakatlar-teatri-vositasida-maktabgacha-yoshdagi-bolalar-motorik-faoliyatini-rivojlantirishning-pedagogik-tizimi-2816578>. Murojaat etilgan sana: 01.11.2023 y.
7. Nazirova G Malikovna, CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AND EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS- INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & ..., 2022
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=oqrGWXoAAAAJ&citation_for_view=oqrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
9. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
10. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).

